

## XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Raimov Jahongir Azamatovich

Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani  
107-sonli umumiy o'rta ta'lif maktabi


**Annotatsiya.** Maqolada o'quvchilarga bilim berishda ta'lif sifatini ko'tarish, ularning bilim olishlarida yangi zamona viy metodlardan foydalanish va kelajak avlodning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini yanada oshirishdagi masalar xususida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** Interfaol usullar, guruhlarda ishslash, chet tilini o'rgatish, innovatsion texnologiyalar, ijodkorlik.

**Summary** The article discusses the issues of improving the quality of education in students, the use of new modern methods in their education and further enhancing the aspirations of the next generation to science.


**Keywords:** Interactive methods, group work, foreign language teaching, innovative technologies, creativity.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son qaroriga muvofiq, shuningdek, xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish qaroriga asosan, dunyoda kechayotgan globallashuv, texnika va texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi, jahon hamjamiyati bilan aloqalarning chuqurlashuvi xalqimizning, xususan, yoshlarning xorijiy tillarni o'rganishga talabi va ehtiyoji ortishiga sabab bo'lmoqda. Keyingi yillarda jamiatning turli sohalardagi taraqqiyot natijasida chet tillarga bo'lgan talab ortib, chet tilining o'rni mustahkamlanib bormoqda. Jahonga yuz tutgan ilg'or davlatlar mehnat bozorining asosiy talabi – chet tilida bemalol muloqot qila oladigan, kompyuter texnologiyalardan xabardor va innovatsion g'oyalarga boy hamda o'z uslubiga ega bo'lgan kadrlardir. Bugungi kunda mamlakatimizda chet tillarini o'rgatish va o'rganishga bo'lgan e'tibor har qachongidan ham kuchliroqdir. Respublikamizda xorijiy tillarni o'rgatishda ularni avval mavjud bo'lganidek pedagogikaning ancha eskirib qolgan dasturlariga asoslanib o'qitish emas, balki jahonning yetakchi davlatlari tajribalariga tayangan holda o'qitish, ta'lif jarayonida rivojlangan, samarali usullar, yangicha dasturlar, innovatsion metodlardan foydalangan holda chet tili o'qitish sifatini yaxshilash va shuning samarasi o'laroq mamlakatimizni rivojlantirishda o'z hissasini qo'sha oladigan, malakali kadrlarni, kasbining yetuk mutaxassislarini yetishtirish ta'lif dasturining asosiy mazmuniga aylandi.



Inson faoliyatining barcha sohalariga innovatsiyalarning kirib borishi shaxslararo va ishbilarmonlik aloqalari jarayonini soddalashtiradi. Hech shubha yo'qki, innovatsion texnologiyalar ham ta'limi tubdan o'zgartirdi. O'tgan yillar davomida o'qituvchilar yangi texnologiyalarga javoban o'zlarining o'qitish usullarini tubdan o'zgartirdilar. Chyet tillarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'qitishni qiziqarli qilish va takomillashtirish nuqtai nazaridan samaraliroq qilish kabi ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi. Bundan tashqari, ushu zamonaviy texnologik vosita o'quvchilarni qiziqishlariga qarab jalb qilish va o'rganishga yordam beradi. Zamonaviy shart-sharoitlar nafaqat chet tillarini o'qitishda yangi texnologiyalardan foydalanishni, balki o'qitish metodikasidagi o'zgarishlarni va o'qituvchidan chet tillarini o'rganish jarayonida eng yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etishni talab qiladi.


Maktabda chet tilini o'rganishdan asosiy maqsad mактаб o'quvchilari o'rтасида tilga bo'lgan qiziqish faoliyatini orttirish va chet tilida muloqotni maktab davrida shakllantirishdan iborat. Boshlang'ich maktabda dars beruvchi chet tili o'qituvchisi o'quvchilari uchun imkon qadar darsni qiziqarli tarzda olib borishga harakat qilishi va bolalarda ijobiliylikni shakllantirish kerak bo'ladi. O'quvchilar chet tilini yanada qiziqish bilan o'rganish uchun kayfiyatni shakllantirish, nutqda elementar muloqot qobiliyatlarini o'rgatish va kichik o'quvchilarni o'qish va yozish, tanishtirishga oid quvnoq chet tiliga xos qo'shiq bilan darslarni yanada qiziqarli tarzda olib borish mumkin. Kichik maktab o'quvchilarning nutqiy bilim qobiliyatlarini she'riy va biron bir ajoyib folklor mahalliy va xorijiy tillarda kuzatilgan lingvistik tushunchalar bilan ham boyitish mumkin. O'qitishning interaktiv uslublari deyilganda birinchi navbatda talabaning o'quv jarayonini faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik uslublar majmui va texnik vositalar tizimi tushuniladi. Interaktiv uslubdagi mashg'ulotda talaba berilayotgan ma'lumotlarni tinglashi, o'qishi, ko'rishi, yozib borishi, mavzu bo'yicha savollar berishi, o'z fikrini erkin bayon etishi, amaliy topshiriqlarni bajarishi va o'zining hayotiy tajribasi bilan bog'lab, mavzu bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar hosil qilishi lozim. Misol tariqasida chet tili, xususan ingliz tili darsini o'rgatishda boshlang'ich darslarda Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayanadigan bo'lsak, ingliz tili o'qituvchilarining ingliz tili va o'qitish metodikasi bo'yicha bilimlarini mutaxassislar orasida TKT nomi bilan mashhur "The Teaching Knowledge Test" (O'qitishdagi bilimlarni baholash testi) orqali baholash va ularning metodik bilimlarini oshirib borishimiz maqsadga muvofiq.



Bu test tizimi pedagogik tajribaga ega bo‘lganlar, shuningdek, ingliz tili o‘qituvchisi bo‘lish umidida yurgan talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, uch asosiy moduldan tarkib topgan.

Uning qo‘sishimcha modullari — CLIL (Content and Language Integrated Learning) hamda YL (Young Learners) nafaqat chet tili o‘qituvchilari, balki boshqa fanlarni xorijiy tilda o‘tadigan mutaxassislar va 6-12 yoshli bolalarga dars beruvchi pedagoglarga ham mo‘ljallangan.

Ingliz alfabetini eshitish mashqlari orqali yod olgan o‘quvchi –talabalar tik turgan holda bu vazifani bajarishadi. Vazifada har bir harf tepasiga yozilgan o‘ng, chap, birligida ma’nosini anglatuvchi so‘zlarining bosh harflari yozilgan va o‘quvchilar o‘qituvchi yordamida harflarni aytish bilan birga harakatlarni ham bajarishi kerak bo‘ladi. Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir o‘quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishiga asoslanadi. Bunday usullardan foydalangan holda bilim olish o‘quvchi uchun qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi. Darsda interfaol usullar qo‘llanilganda o‘quvchilar o‘qituvchi yordamida va hamkorligida mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar. Chyet tillarini o‘qitishda asosiy e’tibor kommunikatsiyalarni rivojlantirish, muloqot qilish, aloqa jarayonida tilni o‘zlashtirishga qaratilish kerak. Bunda o‘quvchilarda o‘rganilayotgan tilga qiziqish qobiliyatini uyg‘otish, nutqni, fikrlashni rag‘batlantiradigan vaziyatni yaratish va talaba istagan mavzu bo‘yicha gapirishi, munozarada ishtiroy etishi, tafsilotlarni aniqlashi mumkin. Nutq va fikrlash faoliyatini kuchaytirishda rolli o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Rolli o‘yinni faollashtirishda jarayonni beradigan tasavvur va xotira, hayotiy tajribada muloqot hissi uyg‘onadi va bu ta’lim samaradorligida o‘quvchilarda o‘rganilayotgan tilga nisbatan motivatsiya bo‘lishi, mavzuga qiziqish hissi o‘sishi sabab bo‘ladi. Rolli o‘yin talabada nutqni rag‘batlantirishda faollilik oshadi, chunki o‘quvchilar o‘zlarini shu vaziyatda bo‘lganda biron bir narsani aytishi, so‘rashi, mavzu haqida bilib olishi bilan birga suhbadosh bilan nimanidir baham ko‘rish imkoniyatiga egadir. Yuqoridaq aytilgan misollarning davomi sifatida chet tili boshlang‘ich darslarida tanishuv mavzusiga oid – salomlashish, ismi va yoshini so‘rash, qayerda yashashi haqidagi dialoglarni tinglash va kichik guruhlarda ishlagan holda o‘rganilgan so‘z birikmalarni gapda qo‘llash mumkin. Bunda o‘quvchi-talabalar o‘rganilgan so‘z birikmalarni bir-birlariga savol qilib berishlari va o‘z tengdoshining javoblarini eshitib, o‘zlarini ham berilgan savollarga javob berishlari kerak bo‘ladi. Bunday vazifada o‘quvchi-talabalar dialog usulda savol-javob qilishlari yoki sherigi haqida uchinchi shaxsda gapirib berishi mumkin. Topshiriqda nafaqat o‘rganilgan so‘zlar qaytariladi, balki olmoshlar ham



takrorlanadi. Chyet tili darslarida talabalar bilan guruhlarga bo‘lingin holda ishlaganda beriladigan topshiriqlar alohida bir o‘quvchiga emas,balki barchaga o‘quvchilarga beriladi.

### Xulosa.

1. Biz yangi davr xorijiy til o‘qituvchilarini tayyorlashda ularning faqat til bilish darajasini emas, balki o‘z darslariga auditoriyani qiziqtira olish mahorati, zamonaviy metod va ta’lim texnologiyalarni qo‘llash hamda o‘quvchilarning til o‘rganishga ehtiyojini sifatli ta’minlab bera olish kompetensiyasiga ham e’tibor qaratishimiz lozim.

2. Darsda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish o‘qituvchining ko‘p qirrali va rang-barang faoliyatini kompyuter zimmasiga yuklash emas, balki o‘quv jarayonini jadallashtirish, bilim olish amaliyotini faollashtirish, o‘quvchilarda chet tiliga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirish va xalqaro ta’lim tajribasini o‘rganish va shu yo‘l bilan ta’lim samaradorligini oshirishdan iborat.

### Adabiyotlar:

1. Mavlonova U.K., Karimova Sh.K. THE PROBLEM OF TEACHING ENGLISH IN MIXED ABILITY CLASSES // Dostijeniya nauki i obrazovaniya. № 5 (59), 2020. 3. Mavlonova U.K., Achilova R.A. THE PROBLEM OF TRANSLATION OF REALIA (AMERICANISMS) // Dostijeniya nauki i obrazovaniya. № 5 (59), 2020.
2. Madaminov.S.Q.Chyet tillarni o‘qitishda innovatsion metodlarning o‘rni va ularning uslubiy tahlili.Magistr dissertatsiyasi.Samarqand-2018.
3. O.D.Raximov, O.M.Turg‘unov, Q.O.Mustafayev, H.J.Ro‘ziyev .Zamonaviy ta’lim texnologiyalari.Toshkent-2012.20-bet30
4. Hasanboyev J., To‘raqulov X.A., Alqarov I., Usmonov N.O‘. Is’yanov R.G., Yuzlikayev F. Pedagogika nazariyasi (Didaktika) Toshkent –2011 yil
5. Innovatsion ta’lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 150 b.
6. Ashurova D., Yuldashev Z. Ta’lim tizimida innovatsion va axborot texnologiyalarini qo‘llash – zamon talabi // Xalq ta’limi. – Toshkent: 2006. - № 1. – B. 16-17].
7. Azimovna, R. F. (2024). Youth Entrepreneurship and its Development Measures. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 3(1), 340-343.
8. Jumayeva, M., Quvvatova, G., & Dovurova, G. (2023). INNOVATIVE METHODS AND TOOLS IN HIGHER EDUCATION. Science and innovation, 2(B11), 713-720.
9. Bekzodovna, J. M., & Akbarovna, D. G. (2023). INNOVATIVE METHODS AND TOOLS IN HIGHER EDUCATION. Science and Innovation, 2(11), 708-715.
10. Davronov I.O., Umurov J.T., M.B.Mechanisms. Of improving staff training // Academy. № 2 (53), 2020.